

**XORIJIY TILNI O'RGANAYOTGAN TALABALARNING
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI**

Shukurova Farida Xayrilla qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Annotatsiya: ingliz tilida talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu annotatsiyada kommunikativ kompetentlikning ta'rifi, uning ahamiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni ko'rib chiqiladi. ingliz tilida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati va uning ta'lim jarayonidagi roli haqida umumiy tasavvur beriladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, ta'lim jarayoni, talabalar, kasbiy imkoniyatlar, ijtimoiy metodlar, pragmatik ko'nikmalar, kommunikativ kompetentlik, interaktiv metodlar.

Аннотация: развитие коммуникативной компетентности студентов на английском языке является одним из важных аспектов современной системы образования. В данной аннотации рассматривается определение коммуникативной компетентности, ее значение и место в образовательном процессе. дается общее представление о важности развития коммуникативной компетенции на английском языке и ее роли в образовательном процессе.

Ключевые слова: английский язык, образовательный процесс, студенты, профессиональные возможности, социальные методы, прагматические навыки, коммуникативная компетентность, интерактивные методы.

Abstract: *development of students' communicative competence in English is one of the important aspects of the modern education system. This annotation examines the definition of communicative competence, its importance and place in the educational process. a general idea is given about the importance of developing communicative competence in English and its role in the educational process.*

Key words: *english language, educational process, students, professional opportunities, social methods, pragmatic skills, communicative competence, interactive methods.*

Bugungi kunda, dunyoda ingliz tilini o'qitish metodikasi tizimida turli metodlardan foydalaniladi. O'qitishdagi har bir metodlar o'quvchi va talabalarga o'qish jarayonida yengillik yaratish maqsadida yaratiladi. Yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan o'quvchi yoshlarning ingliz tili va boshqa chet tillarini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari yurtimizda chet tillarga o'qitishning kompleks tizimini yaratish, va uning sifatini oshirish eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda ushbu qarorlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir nechta ishlar amalga oshirilgan. Xususan, har bir oliy ta'lim muassasalarida xorijiy hamkorliklar yo'lga qo'yilgan va dars jarayonlariga xorijlik yetakchi professor-o'qituvchilar jalb qilinmoqda. Bu esa talabalarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi tabiiy. Talabalarning kommunikativ kompetentligini oshirishda CLT (Communicative language Teaching) metodining o'rni beqiyos. Ushbu metod XX asrning 70-yillarida Angliyada vujudga keldi va til o'qitish tizimiga o'ziga xos yangilik bo'lib kirib keldi. Bunga sabab, endi o'quvchilar til o'rganish jarayonida nafaqat grammatika, balki so'zlashuv imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu metod bir tilda o'quvchilarning kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash tizimida kommunikativ bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish va bu boradagi ta'limiy islohotlarni jadallashtirishga doir ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yangi O'zbekistonda yosh avlodni muloqotchanlik va kreativlik asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanishi bejiz emas. Talabaning xorijiy tillarni bilish kompetentligi komponentlarini rivojlantirishning tanlangan darajalari o'zaro bog'liq ravishda va algoritmik rivojlanadi, keyingi har bir daraja esa oldingi ko'rsatkichlarning sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi.

Talabalarining kommunikativ kompetentligini oshirishda CLT (Communicative language Teaching) metodining o'rni beqiyos. Ushbu metod XX asrning 70-yillarida Angliyada vujudga keldi va til o'qitish tizimiga o'ziga xos yangilik bo'lib kirib keldi. Bunga sabab, endi o'quvchilar til o'rganish jarayonida nafaqat grammatika, balki so'zlashuv imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu metod bir tilda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. G'arb mamlakatlarida CLT metodi tezlik bilan tarqalib shuhrat qozondi, ammo bu holat Osiyo mamlakatlarida odatda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab esa, Osiyo mintaqalari mamlakatlarida CLTni tatbiq etishda muvaffaqiyatga erisha olmagan omillar qatoriga ba'zi mamlakatlarda qo'llaniladigan sinovdan o'tgan ta'lim tizimi, ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuv va o'qituvchilarning CLT yondashuviga salbiy munosabati kiradi. Til o'qituvchilari CLT yondashuvini noto'g'ri qabul qilishiga asrlar davomida saqlanib kelgan eskicha qarash ustoz-shogird nazariyasidir. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, o'quvchilarida kommunikativ kompetentsiya grammatik, nutqiy, strategik va ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning turli o'lchovlarini o'z ichiga olgan ushbu "kommunikativ kompetensiya" atamasining ta'rifi haqida o'qituvchilarni ko'proq xabardor qilinishi lozim. Ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida kommunikativ

kompetensiya haqidagi bu bilim va xabardorlik juda muhim sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy ilm dargohlarida ushbu metoddan keng qo'llaniladi va ushbu metodning ilmiy muvaffaqiyati ham to'liq isbotlangan. "Kompetensiya" atamasi birinchi marta AQSH Massachusetts universitetida XX asrning 60-70 yillarida Noam Chomskiy tomonidan "til kompetensiyasi" (language competence) orqali amaliyotga kiritilgan va unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kompetensiya – tilni qo'llash jarayonidagi faoliyatga yo'nalgan bilim, malaka va ko'nikmalar majmui"dir . Ayrim manbalarga ko'ra, 1959-60 yillarida R.Uyayt asarlarida "Kompetensiya – inson hayoti shaxs motivatsiyasiga (motivation reconsidered the concept of competence) asoslangan yaxlit konsepsiya" sifatida talqin qilingan . Shunday qilib, Yevropada bu atama 1970-yillarda qo'llana boshlandi. Pedagogikadan atamalar lug'atida "kompetensiya — u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik" sifatida tarif berilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "kompetensiya — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba" sifatida tariflanadi. Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* so'zidan olingan bo'lib — "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egallik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi". Kommunikatsiya so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan "kommunikabellik" –"muomala qilishga layoqati bor" ma'nosida,

“kommunikabel” – “kirishimli, dilkash” ma’nosini bildiradi, shuningdek “kommunikativ” – ya’ni “kommunikatsiyaga oid” . Kommunikatsiya – bu, birinchi navbatda, faoliyat usuli bo‘lib, u insonlarning o‘zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi . Demak, kommunikatsiya o‘ziga xos o‘zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o‘zaro yordam ko‘rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta’minlanadi. Shuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin. Shunday ekan, kommunikativlik muloqot qiluvchi tomonlarning g‘oyalari, fikrlari, bilimlari, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi integral belgilar shakllanishining almashinuvi deb ta’kidlash mumkin . Kommunikativ kompetentlik borasida olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, aynan kompetensiyalar ta’lim va tarbiya jarayonida talabalarga nimani o‘rgatish va qanday o‘rgatish, nimalarni shakllantirish lozimligi muhim sanaladi. Bu jarayonda ingliz tili darslari ham bundan mustasno emas. Shu nuqtai nazardan olganda, “kommunikativ kompetentlik” tushunchasini tahlil qilish biz uchun dolzarb muammodek ko‘rinadi. Talabalarning kommunikativ kompetentligiga nimalar kiritilishi kerakligiga ko‘plab yondashuvlar mavjud. D.Xayms bu yerga diskursiv (aytilayotgan gapning ma’nosini qurish qoidalari) va strategik (suhbatdosh bilan aloqani davom ettirish qoidalari), grammatik (til qoidalari) va ijtimoiy-lingvistik (dialekt nutq qoidalari) kompetensiyalarini kiritishni zarur deb hisobladi . Tadqiqotchi A.A.Bodalyovning izohlashicha, “muloqotning kommunikativ tomoni insonlar orasida ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashishdan, muloqotning interfaol tomoni individlar orasida o‘zaro hamkorlikni tashkillashdan, ya’ni nafaqat bilim va g‘oyalar, shu bilan birga xattiharakatlar bilan axborot almashinishdan..., muloqotning perseptiv tomoni bir-birlarini qabul qilish jarayonini muloqotdagi sherik deb qabul qilishi va shuning zaminida hamjihatlik munosabatidan iborat. Shaxs muloqot qilayotgan sheriklarining o‘z fikri, dunyoqarashi, g‘oyalarini to‘la-to‘kis ifodalashga psixologik sharoitlar yaratish, vositalarning boy, turli-tuman palitrasini tashkillash, adekvatlikning barcha perseptiv, kommunikativ, interfaol qirralarini egallashga

yo'naltirilgan bo'lishi kerak". Rus olimi O.Kazarseva fikricha, kommunikativ kompetentlilik "tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishning asosida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rolli muloqotlarning o'zgarishi yotadi". Demak, ushbu kompetentlik, murakkab kommunikativ ko'nikma va faoliyat turi bo'lib, yangi ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot normalari va cheklovlar, bilim, urf-odatlar, etiket, odob-axloq, ta'limga xos orientatsiyalar hisoblanadi. Chet tillarni o'qitishning pragmatik jihati talabalarning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, ularning bilimlari o'rganilayotgan davlatning etnik madaniy qadriyatlari bilan tanishish va madaniyatlararo tushunish va idrok sharoitida chet tilini amaliy qo'llash imkonini beradi. Bunday bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarning kombinatsiyasi talabalarning kommunikativ kompetensiyasidir. Muloqot konsepsiyasi odamning ilmiy va shaxslararo muloqot qobiliyatlari o'rtasida davom etayotgan urinishlar natijasidir.

Talabalarini chet tilidan o'qitish jarayonida hamda ularning bo'lajak kasbiy faoliyatlarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni to'liq o'zlashtirishlari uchun ta'lim yo'nalishi nuqtai-nazaridan chet tilini bilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qilishmaydi. Professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, chet tilidan olingan bilimlar bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Lekin, birinchi kurs talabalarining ko'pchiligida chet tili bo'yicha bilim darajasi yetarli emasligi va ulardan mustaqil foydalanish ko'nikmasi shakllanmaganligi muammolar keltirib chiqaradi. Buning uchun talabalar bilan individual ishlash, ta'lim farayonida har bir mavzuga chet tilini qo'llash, chet liga doir dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish lozim.

Tajriba-sinovning dastlabki bosqichining tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki:

- talabalarning professional ta'lim sohasiga chet tilining tadbiqu to'g'risida tasavvurga ega emas;
- xorijiy tildan talabalarning bilimi yetarli darajada emas, ya'ni mutaxassisligi nuqtai nazaridan kasbiy yo'naltirilmagan;
- ta'lim jarayonida aksariyat talabalarda tabiiy hodisa va jarayonlarga chet tilini qo'llash unchalik muhim bo'lmay, balki ular nazorat ishlarini yaxshi topshirishlari muhimdir.

Talabalar ingliz tilida kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishlari, ularni ish bozorida raqobatbardosh qiladi. Ingliz tilida yaxshi muloqot qilish qobiliyati, xalqaro kompaniyalarda ishlash, chet elda stajirovka o'tash yoki ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini oshiradi. Til orqali madaniyatni o'rganish mumkin. Talabalar ingliz tilini o'rganish jarayonida boshqa mamlakatlarning madaniyatini, urf-odatlarini va an'analarini tushunadilar. Bu esa global muammolarni hal qilishda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlar, masalan, rolli o'yinlar, munozaralar va guruh ishlari muhim ahamiyatga ega. Bu usullar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga tayyorlaydi.

Ingliz tilida talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ularning akademik va kasbiy muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon nafaqat til ko'nikmalarini oshirish, balki madaniy tushunishni kengaytirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shuning uchun ta'lim muassasalari bu jarayonni qo'llab-quvvatlashlari va talabalarni zamonaviy kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlashlari zarurdir.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLAR ORQALI PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH (TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA). Qarshiyeva B.F.

2. Isakovna, T. N. OEUVRE OF OMON MUHTOR AND HIS CONTRIBUTION TO UZBEK LITERATURE.
3. Igamberdieva, S. (2022, September). PRINCIPLES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 2, pp. 212-216).
4. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PUN AND DOUBLE ENTENDRE. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 174-177.
5. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). HOMONYMY IN ITS STYLISTIC USE: ANALYSIS OF PUNS. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 178-181.
6. Kholmatov, S. Z. O., & Mushtariybegim, Y. M. Q. (2022). IMPORTANCE OF WORDPLAY IN ENGLISH LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF PUN). *Academic research in educational sciences*, 3(6), 869-873.
7. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.